

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Kasb talimi(Informatika va AT) kafedrası

**MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer
dasturiy mahsulot yaratish**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar _____ dots. S.Xashimov

Namangan-2016

Mundarija

Kirish	4
1-bob. MS Office 2010 dasturi va trenajyorlar yaratuvchi tizimlar bo`yicha mavjud manbalar tahlili	6
1.1. Trenajer dasturiy mahsulotlar va ulardan foydalanish bo`yicha mavjud manbalar tahlili	6
1.2. Билим олишнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқишда тренажерли технологияларнинг ўрни	9
1.3. Masalaning qo`yilishi va uning amaliy ahamiyati.....	11
2-bob. MS Office 2010 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va trenajyor mahsulotlar yaratish vositalari	12
2.1. MS Office 2010 dasturi va uni o`rnatish bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlarni shakllantirish.....	12
2.2. Trenajyor dasturiy mahsulotlarni yaratish vositalari va imkoniyatlari.....	15
2.3. Dasturiy mahsulotlarni yaratishda dasturlar va kompyuterning texnik ta`minotiga talablarni ishlab chiqish	22
3-bob. MS Office 2010 dasturini o`rnatish va dastur imkoniyatlari bo`yicha multimediali dasturiy mahsulot ishlab chiqish	23
3.1. MS Office 2010 dasturini o`rnatish ketma-ketligi va o`rnatiluvchi dasturlarning turlari bo`yicha muammoli ma`lumotlarni shakllantirish ...	Ошибка!
Закладка не определена.	
3.2. Trenajyor dasturiy mahsulotni yaratish texnologiyasi.....	33
3.3. Yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish bo`yicha yo`riqnoma ishlab chiqish	33
3.4. O`quv mashg`ulotlarini tashkil etishda trenajyor mahsulotlar va ularni samaradorligi	Ошибка! Закладка не определена.
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	34
4.1. Kompyuter xonalarida stol va stullarning joylashuviga bo`lgan talablar ...	34
4.2. Amaliy mashg`ulot davrida kompyuterlardan foydalanish qoidalari	35
Xulosa.....	37
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	38

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prezidentimizning ta'lim sohasiga oid juda ko'plab farmonlari hamda Vazirlar mahkamasining qarorlari chiqarilmoqdaki, ularning mazmunida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar orqali davlatimiz eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishida zamin yaratish asosiy maqsad hisoblanadi.

Ҳозирги пайтда таълим тизимини такомиллаштириш орқали ҳар томонлама етук, баркамол, мустақил фикрлашга қодир, иродали, фидоий ва ташаббускор кадрларни тайёрлашга катта эътибор берилаяпти. Бу борада таълим турлари тўғрисидаги мутлақо янги қоидалар ҳаётга жорий этилди. Кадрлар тайёрлаш ва узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилишнинг ҳуқуқий – меъёрий асоси яратилди.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil yakunlari va va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qilingan ma'ruzalarida shu yo'nalishda quyidagi fikrlarni keltirib o'tdilar: “Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profisit bilan bajarildi. Inflyasiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlarini bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani albatta barchamizga mamnuniyat yetkazadi.”

Keltirib o'tilgan fikrlar ham davlatimizning tanlangan yo'lda izchil ravishda rivojlanib borayotganligidan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning bugungi kunda o'z natijasini berayotganligidan dalolat beradi.

Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan shu ma'ruzada axborot texnologiyalarining davlatimizga qo'shayotgan ulushi haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tdilar: “Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashligimiz zarur.”

Bitiruv malakaviy ishi mavzusida qo'yilgan MS Office 2010 dasturini o'rnatish bo'yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish mavzusidagi masala ham ta'lim tizimida, ya'ni akademik lisey va kasb hunar kollejlari o'qitiladigan Informatika fanini o'zlashtirayotgan o'quvchi talabalarni mustaqil o'rganishlari uchun mahsulot yaratishga qaratiladi.

Fan sohasini formal tasnifi. O'quv fanining dolzarbligi va zarurligi shundan iboratki, o'quvchilar fanni o'zlashtirish davomida professional darajadagi bilimlarni o'zlashtirish, MS Office 2010 dasturini mukammal darajada ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Akademik lisey va kasb – hunar kollejlari barcha ta'lim yo'nalishlari uchun bunday dasturlar bilan ishlash juda muhim hisoblanadi. Bunday dasturiy vositalarni yaxshi bilgan bitiruvchi kichik mutaxassislar o'z g'oyalari ilgari surish, o'z loyihalarini ishlab chiqish, turli animasion taqdimotlarni ishlab chiqish va tushuntirish uchun juda yaxshi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan muammo zamirida kasb-hunar kolleji talabalarining MS Office 2010 dasturini yaxshi o'zlashtirgan kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standarti asosida o'qitiladigan mutaxassislik fani mustaqil ta'limidagi ushbu dastur imkoniyatlarini o'rganishda mustaqil ta'lim sifatida o'rgatuvchi elektron trenajer dasturiy ta'minot yaratish va bu dastur imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish masalasi yotadi. Ushbu muammoni hal qilish orqali talabalarni mutaxassislik fanlarini chuqur o'zlashtirishlari hamda kelgusida soha bo'yicha o'z faoliyatlarini olib borishlarida maxsus qo'llanma bo'lib xizmat qilishi nazarda tutiladi. Bugungi kunda bunday o'quv trenajer dasturiy mahsulot ishlab chiqilmagan. SHu sababli bu mavzuni dolzarb hamda kasb-hunar kolleji talabalari uchun muhim deb hisoblash mumkin.

Loyihaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan MS Office 2010 dasturini o'rnatish bo'yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratishdan asosiy maqsad sifatida talabalar mustaqil bilim olishlari samaradorligini oshirish, turli animasion fayllarni yaratish hamda o'quvchilarni ko'proq bilim olishlari va yetuk mutaxassis bo'lib yetishlarida manba yaratishga erishishdan iborat.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi). Keltirib o`tilgan bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejalaring barcha ta`lim yo`nalishlari bo`yicha kichik mutaxassislar uchun Informatika va AT fanining mustaqil ta`lim soatida MS Office 2010 dasturida ishlash bo`yicha talabalar bilimini yanada oshirish uchun o`rgatuvchi elektron trenajerlarni yaratish va ushbu mahsulotni o`quv jarayonida mavzuga qo`llash hamda yetarli samaraga erishish ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

БМИнинг мақсади ва вазифалари. Битирув малакавий ишининг асосий мақсадларидан бири, ўқитувчи ёрдамсиз ўқувчилар тажриба машғулотларини тўлиқ ўзлаштириш имкониятларига эга бўлишларини таъминлаш ҳамда фан бўйича ўтиладиган назарий билимларини янада мустаҳкамлашдан иборат. Шу билан бирга касб-хунар коллежларида таълим жараёнининг сифат кўсаткичларини янада оширишдан иборат.

Битирув малакавий ишини асосий вазифаларидан бири MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish va bu trenajerни ўқув жараёнига қўллаб, мақсад қилиб олинган натижага максимал даражада эришиш. Яъни, талабани келтириб ўтилган мавзу бўйича билимини ошириш ва мустаҳкамлашдан иборат.

Ишдаги янгиликлар ва эришилган ютуқлар. Битирув малакавий ишини бажариш жараёнида жуда ҳам кўп бўлмасада, лекин кичик –кичик янгиликларга эришилди. Буларга:

- Битирув иши малакавий ишини бажариш жараёнида берилган мавзу учун тренажер яратилди;
- Фани ўзлаштириш давомида бажариладиган тажриба ишлари кетма-кетлиги яққол ажратилиб унда бажариладиган ишлаш кетма-кетлиги тўлиқ намойиш қилинди;
- Тажриба ишларидан бири учун тренажер яратилди;
- Келгусида ишни янада давом эттириб бошқа тажриба ишлари учун ҳам тренажер маҳсулотларни яратишга замин ҳозирланди.

Албатта бу битирув ишини бажариш жараёнида эришилган ютуқларни жуда кўплаб санаб ўтиш мумкин, лекин эришилган ютуқларнинг энг кўзга кўринганлари булар албатта юқорида санаб ўтган ютуқларимиз ҳисобланади.

БМИнинг тузилиши ҳақида маълумот. MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish мавзуси бўйича тайёрланган малакавий битирув иши асосан қуйидаги қисмлардан ташкил топган. Булар, кириш, асосий қисм, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар бўлимларидан иборат.

Малакавий битирув ишининг кириш қисмида таълим сифатини ошириш ва ислоҳ қилиш, мавзунинг долзарблиги, битирув малакавий ишининг мақсади ва вазифалари ҳамда битирув малакавий ишининг тузилишидан иборат.

Касб таълими йўналишида янги ахборот технологиялари бўлимида ўқитиш методи ўқитувчи ва ўқувчилар назарий ҳамда амалий билиш фаолиятининг таълимий вазифаларини бажаришга қаратилган йўли, унга қўйиладиган муайян талаблар кўриб ўтилади. Шунингдек, ҳозирги ўқитиш жараёнида қўйиладиган талаблар нима ва ўқувчиларда дарсга қизиқувчанликни оширадиган, уни янгилик элементлари билан бойитиш учун нима қилиш кераклиги ҳақида фикр юритилади.

Мавзунинг долзарблиги, унинг бугунги кун нуқтаи назаридан талқин қилиниб, унинг ҳақиқатда актуал масала эканлиги кўрсатиб берилади.

Битирув малакавий ишининг мақсади ва вазифалари кейинги бўлимда батафсил ёритиб берилади. Ҳамда битирув малакавий ишини асосий вазифаларидан бири MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish va bu dasturiy маҳсулотни ўқув жараёнига қўллаб, мақсад қилиб олинган натижага максимал даражада эришишдан иборат эканлиги баён қилинади.

Асосий қисм эса, тўртта бобдан иборат бўлиб, унда фаннинг асосий мақсадидан бошлаб, масаланинг қўйилиши, MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish учун дастурий ва техник воситалар, Тажриба машғулотларини бажариш бўйича тренажер дастурий маҳсулот яратиш технологиялари, Яратиладиган дастурий маҳсулотнинг умумий структураси ҳамда мавзу учун тренажер дастурий маҳсулот сифатида яратилган дастурий таъминотдан фойдаланиш кўрсатмаси келтириб ўтилади.

Масала натижаси олиб бўлингач, унинг педагогик жиҳатлари, яъни фанни ўқитишда педагогик жиҳатлари кўриб ўтилади. Унда мавзунинг ўзлаштиришда тренажер дастурий маҳсулотнинг аҳамияти ва таълим тизимида тажриба ишларини бажариш бўйича дастурий маҳсулотдан фойдаланиш самарадорлиги эътиборга олинган.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги бўлимида ўқув хоналарида атроф-муҳит муҳофазаси масалалари ва тажриба машғулотларини ўтиш жараёнида атроф-муҳит муҳофазаси масалалари қараб ўтилади. Шунингдек, умумий таҳлиллари келтириб ўтилади.

Хулоса ва фойдаланилган адабиётлар бўлимларида эса, малакавий битирув ишини бажариш бўйича умумий хулосалар, таклифлар ва ишни бажариш жараёнида фойдаланилган адабиётлар ҳамда тавсия этиладиган кўшимча адабиётлар келтириб ўтилади.

Малакавий битирув ишининг изоҳ бўлимида яратилган электрон қўлланма дастурининг матни келтириб ўтилади.

1-bob. MS Office 2010 dasturi va trenajyorlar yaratuvchi tizimlar bo`yicha mavjud manbalar tahlili

1.1. Trenajer dasturiy mahsulotlar va ulardan foydalanish bo`yicha mavjud manbalar tahlili

Истиклолнинг дастлабки йилларидан таълим Ўзбекистон Республикаси ижтимоий тараққиётининг устувор йўналиши, деб эълон қилинди. Президентимиз Ислам Каримов ташаббуси ва бевосита раҳнамолигида жаҳоннинг бу борадаги илғор тажрибалари ҳамда халқимизнинг кўп асрлик миллий қадриятларини ўзида акс эттирган янги таълим тизими ҳаётга татбиқ этилди.

Ўзбекистон ва Россия олимларининг ижодий ишларининг таҳлили шуни кўрсатадики, таълим жараёнининг самараси нафақат унинг техник жиҳатдан тўлиқ таъминланиши, балки унинг дидактик ва методик тамойилларга қанчалик мослигини таъминланганлиги ҳам муҳим аҳамият касб этади. Ахборот коммуникацион технологияларни таълим жараёнида қўлланилиш муаммолари билан қатор олимлар - Ваграменко Я.А., Кузнецов А.А., Лапчик М.П., Мерредит Дж., Михеев В.И., Никандров Н.Д., Панюкова С.В., Роберт И.В., Софронова Н.В. ва бошқалар шуғулланганлар. Ладенко И.С. предмет соҳасига кириб боришдаги билишнинг комплекс воситалари ва ўзаро муносабатлари борасидаги усул ҳамда услубларни, шу билан бирга уларни интеллектуал тизимлардаги ечимлари масалалари билан шуғулланган. Шрейдер Ю.А. инсон билимлари масалаларининг ўзаро алоқадорлиги ва уларни интеллектуал тизимларда акс эттириш муаммоларини тадқиқ қилган. Сўнгги йигирма йил ичида бундай тизимлар кўпинча педагогик дастурий воситалар, таълимий дастурий воситалар, таълимий электрон воситалар, автоматлаштирилган таълим тизимлари ва ҳоказо деб номланиб, уларнинг ҳар бири қайсидир жиҳатдан ўзида технологик, педагогик ва эксперт қирраларини намоён қилган (Ваграменко Я.А., Роберт И.В., Романенко Ю.А., Савельев А.Я. ва б.).

Ахборот коммуникацион технологияларни таълим жараёнида қўллаш: информацион тизим ва фойдаланувчининг интерактив қайта алоқасини таъминлаш; ўрганилаётган объектларни компьютерли визуаллаштириш; ўрганилаётган ҳодиса-жараён ҳақидаги маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва сақлаш; ахборотли тармоқлараро ўзаро алоқани таъминлаш; ўрганилаётган объектларни моделлаштириш орқали тадқиқ қилиш хусусиятига фақатгина интеллектуал таълимий тизимлар ёрдамида эришиш мумкин.

Юқорида баён этилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда, олий таълим муассасаларида кичик мутахассисларни тайёрлаш жараёнида ахборот технологияларни нафақат техник имкониятларидан, балки уларнинг интеллектуал таълимий имкониятларидан фойдаланиш, таълим муассаси жиҳатидан ҳар бир алоҳида таълим олувчига мослаштирилган ўқув тизимини вужудга келтириш, унга мослаштирилган таълим жараёнини ташкил қилиш имкониятини яратиш бериш муаммоларини тадқиқ қилиш бугунги кун малакали кичик мутахассисларни тайёрлаш жараёнини изчиллик билан ташкил этилишини таъминлайди.

Ўзбекистоннинг таълим тизимида эришган ютуқлари олдимизда турган янги ва янада кенг уфқларни очмоқда, деб айтиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистонда таълим тизимини янада ривожлантириш истиқболларига назар ташлаб, таълим жараёнида замонавий ахборот коммуникация технологияларидан оқилона фойдаланиш таълим сифатини янада оширишнинг муҳим омили бўлишини алоҳида таъкидлаш

лозимдир. Бугунги кунга келиб Республикамизда бир қатор электрон ахборот-таълим ресурслари ва дастурий воситалар ишлаб чиқилди.

Тизимда ахборот-коммуникация технологияларини янада ривожлантириш мақсадида ахборот-таълим портали (www.eduportal.uz) ва расмий веб-сайтлари (www.uzedu.uz) (www.multimedia.uz) фаолият олиб бормоқда. Уларга турли электрон ахборот-таълим ресурслари: электрон дарсликлар, тест ва машқлар, виртуал лаборатория ишлари, мультимедиали электрон дарс ишланмалари, масофавий таълим олиш учун мўлжалланган турли ўқув материаллар, интерактив ўйинлар ва бошқа таълим ресурслари жойлаштирилган.

Яратилаётган электрон ресурсларда таълимий маълумотлар фойдаланувчиларга турли усуллар ва шаклларда тақдим этилмоқда. Жумладан, назарий билимлар ва амалий кўникмалар ўқувчиларга матн ва аудио-видео маълумотлар ёрдамида, визуал расм, анимация ва мультипликация шаклида берилмоқда. Электрон ахборот-таълим ресурс (ЭАТР)ларни яратиш учун интерфаол технология ва усуллардан кенг фойдаланилган. Аксарият ресурслар интерфаол луғат(глоссарий)лар билан таъминланган.

Ўқувчиларнинг билимларини мустаҳкамлаш, текшириш ва баҳолаш учун турли ҳил интерфаол ресурслар яратилган: мустақил ишлаш учун тренажёрлар, виртуал амалий ва лаборатория ишлари, тест тўпламлари, кроссвордлар, контурли хариталар ва назорат материалларнинг бошқа турлари.

Таълим тармоқларида мавжуд ресурслардаги интерактив топшириқлар. Бунда мисоллар сонининг кўплиги ва уларнинг тасодифий тарзда генерация этилганлиги сабабли топшириқлар такрорланмайди, жами уринишлар сони, улардан тўғри бажарилганлари сони, умумий баҳо фоизда кўрсатилади. Бу ўқитувчи ва ўқувчиларга интерактив топшириқлардан тренажёр сифатида фойдаланишга имкон беради.

Фан-техника ва таракқиёт асри бўлмиш ҳозирги даврда барча соҳаларга янги инновацион технологияларнинг кириб келиши натижасида жадал суръатлар билан ўсиш кузатилмоқда. Мамлакатимиз таълим тизимини ислоҳ қилиш, малакали кадрларни тайёрлаш масалаларида ҳам ана шундай илғор педагогик усуллардан кенг фойдаланилмоқда. Бу эса ўз-ўзидан таълим сифатини ошириш билан бир қаторда, ўқувчининг ўзлаштириш самарадорлигини ҳам юксалтиради.

Компьютердан таълим жараёнида самарали фойдаланиш фан ўқитувчилари фаолиятида ўқув машғулотларини технологиялаштиришда ёрдам бериш билан бир қаторда мавзуларни тўлиқ ёритиб беришга, дарсларни ўқувчилар билан ҳамкорликда ташкил этишга имкон яратади. Бу эса ўз навбатида ўқувчиларни индивидуал тарзда кузатишга ёрдам беради.

Бунинг натижасида ўқитувчининг асосий эътибори ўқувчига қаратилади. Ундан ташқари дарс ва дарсдан ташқари машғулотларда ўқувчилар мавзу юзасидан мустақил равишда маълумотлар олиши, фойдаланиши мумкин бўлади.

Компьютерлашган тизим асосида ташкил этиладиган дарсларда маълумотлар аниқ, раvon тилда берилиши, иложи борича кўргазмали дастурларнинг бўлиши, мавзунинг ранг-баранглиги унинг янада сифатли бўлишини таъминлайди.



Янги педагогик технологиялар асосида ташкил этиладиган дарсларда ўқув жараёнининг бир неча тури мавжуд. Кўргазмали слайдлар – ўқувчиларга мураккаб мавзуларни ўзлаштиришга қулайлик яратади.

Ўргатувчи – дастурий тренажёрлар дидактик восита вазифасини бажаради. Улар ўргатиш билан биргаликда ўқувчиларга ўз-ўзини баҳолашда ва хатосини англашда ҳам муҳим ёрдамчи бўлиб хизмат қилади. Уларга ўқув фанларини асосий мақсадини ёритган тест ва ўйин дастурларини киритиш мумкин.

Дастурий – назорат воситалари – тест, топишмоқ ва бошқотирмалардан дастурлаштирилган тарзда фойдаланиш – барча ўқув предметларининг асосини ташкил этади. Ўқувчида мавзуларни мустаҳкамлаш, ўзлаштириш сифатини кўтариш мақсадида ушбу воситаларни яратиш ва тадбиқ этиш мумкин. Улар тест жавобларини топиши, балл йиғишлари ва компьютернинг баҳолаш мезони асосида баҳоланишлари кўзда тутилади.

Кўшимча тарзда топишмоқ ва бошқотирмаларнинг тавсия этилиши ўқувчининг тўплаган балларини янада ошириш учун хизмат қилади. Мавжуд топишмоқлар ва ўйинлар

Ўқувчининг ўтилган ва маълумотга эга бўлган мавзулари юзасидан тайёрланган бўлиб, маълум вақт оралиғида жавоб бериш талаб этилади



- Графиклар билан ишлашга мўлжалланган тренажер-топшириқлар эса ўқитувчига функция графигини ясашни ўргатишда, функция параметрлари ва унинг графиги орасидаги боғланишни тушунтиришда кенг имкониятлар беради.

- Қизиқарли ўйинлар, анимация, видео, тарихий маълумотлар ва алгебраик билимларнинг амалиётдаги татбиғи ҳақида маълумотлар дарс жараёнини бойитиш, ўқувчилар қизиқишини ва шу билан бирга дарс самарадорлигини оширишга, яқуний тест назорати эса ўзлаштиришни ҳолисона баҳолашга имкон беради.

- Мазкур ЭАТРлардан бевосита алгебра дарсларида, дарсдан ташқари (факультатив) машғулотларда фойдаланиш, уйда эса ўқувчилар томонидан тренажёр сифатида мустақил равишда билим ва кўникмаларни мустаҳкамлаш учун мўлжалланган бўлиб, ўқитувчига ўқув жараёнини бойитиш ва самарадорлигини ошириш учун бир қатор имкониятларни беради.

таълим жараёнида электрон интерфаол доска(ЭИД)дан фойдаланиш, интерфаол услубларга асосланган электрон ахборот-таълим ресурслар ёрдамида замонавий дарсларни ўтказишга ўргатиш учун электрон ахборот-таълим ресурсларини яратишга асос қилиб олинган.

1.2. Билим олишнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқишда тренажерли технологияларнинг ўрни

Электрон таълим муҳитида қўлланиш учун мўлжалланган ўқув-методик ресурслар янги билимлар ва қўшимча маълумотлар билан танишиш, амалий кўникмаларни эгаллаш ҳамда уларнинг шаклланганлик даражасини мустақил назорат қилиш билан боғлиқ замонавий талаблар асосида яратилиши лозим. Бу каби ўқитиш тизимлари ўзида анъанавий таълимнинг ижобий жиҳатларини сақлаб қолган ҳолда тьюторлик таълимини жорий қилиш имконини бериши билан ҳам изоҳланади.

Электрон ўқитиш тизимлари мустақил таълим жараёнини қўллаб-қувватлашга қаратилган бўлиб, уларда машғулотлар мазмуни ва уларга оид назорат материалларини узатиш, топшириқларни янги комбинацияларда генерация қилиш ҳамда натижаларни автоматлашган тартибда амалга ошириш имкониятлари мавжуд. Бу ўринда билим олишнинг интеллектуал тизими таълим жараёнини индивидуаллаштириш ҳамда дифференциаллаштириш, етакчи профессор-ўқитувчилар илғор педагогик технологияларини кенг жорий этиш, таълим сифатини ошириш, узлуксиз таълим олиш имкониятини яратиш, мустақил таълим олишнинг турли шакллариини ўзаро бир-бирига яқинлаштиришга қаратилган.

Билим олишнинг интеллектуал тизимида ўқув топшириқлари вариантларини турли тартибда генерациялашга асосланган виртуал тренежарлардан фойдаланилган. Топшириқ вариацияларининг кўп сонда бўлиши синов натижаларининг объективлигини таъминлаб, исталган босқичда ўқитувчи томонидан тизимдан фойдаланувчининг барча ҳаракатлари натижаларини олиши мумкинлиги билим олиш жараёнини объектив назорат қилиш ҳамда зарур ҳолатларда ўқув-назорат материаллари мазмунига тегишли ўзгартириш киритиб бориш имконини беради.

Тренажерли таълимга кўп жиҳатдан ҳаракатларни босқичма-босқич шакллантириш мос бўлиб, у ўзлаштириш жараёни, унинг босқичларини таҳлил этилиши ва очиб берилиши ҳамда ўрганувчининг ҳар бир босқичидаги фаолиятини кўриш бўйича тавсиялар ишлаб чиқишга йўналтирилган. Ҳаракат шакли – ўрганувчи томонидан унга бериладган ҳаракатларнинг ташқи ички аклийга узатилишидаги ўзлаштирилиш даражасини англатади. Ҳаракатнинг умумлашганлик даражаси – ҳаракатни бажариш учун буюм хоссасини бошқа аҳамиятсиз белгилар ичидан ажратиб олиш даражасини белгилайди. Ҳаракатнинг кенглик даражаси – ўзгарувчи томонидан барча характерларни бажарилаётганлиги даражасини ифодалайди. Ҳаракатларни ўзлаштириш даражаси – ҳаракатларнинг автоматлашганлик ва тезлик даражасида намоён бўлади.

Замонавий тренажерлар ҳамда уларга асосланган ўқитиш дастурларида таълим олувчиларни интеллектуал ҳамда амалий кўникмаларини шакллантириш масалалари уларнинг назарий тайёргарлиги билан уйғун равишда амалга оширилиши кўзда тутилади. Яъни, машғулот жараёнида тренажер ва унда бажариладиган машқлар ҳам фойдаланувчи билан биргаликда мураккаблашиб, ривожланиб боради. Бу каби ёндашувларнинг жорий этилишига компьютер техникаси, виртуал борлиқни яратиш технологиялари ҳамда интеллектуал таълим тизимларининг жадал ривожланиб бориши муҳим асосларни яратиб берди. Дастлаб, виртуал тренажерлар ҳарбий ва тиббиёт соҳасида татбиқ этилган бўлса, ҳозирда таълим тизимида ҳам кенг фойдаланиш учун имкониятлар юзага келмоқда. Шу сабабли, педагогик таълим жараёнига тренажёрларни татбиқ қилиш, улардан компьютерлашган таълим муҳитида фойдаланишнинг илмий-педагогик асосларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Демак, тренажерли технологиялар моделлаштириш ва симуляциялаш тизими, компьютер дастурлари ҳамда физик моделлар, фойдаланувчини тез ва сифатли қарорлар қабул қилишга ўргатишга қаратилган махсус методикаларни қамраб олувчи мураккаб комплексни ташкил қилади.

Юқори аниқликда ва реал вақт режимида ишловчи замонавий виртуал тренажерлар қуйидаги таркибий қисмлардан таркиб топади:

Моделлаштирувчи компьютер. У персонал компьютер каби содда ёки кўппроцессорли ўта замонавий миникомпьютер кўринишида бўлиши мумкин. Кўпчилик ҳолатларда оператор интерфейси моделлаштирилувчи жараёнга мос ёки унга максимал даражада яқинлаштирилган кўринишда бўлади.

Имитацион модел. Имитацион компьютерда қўлланилувчи дастурий моделлар моделлаштирилувчи жараёнларнинг таркибий қисмлари ҳамда тизим ўртасидаги таъсирлашувни реал даражада акс эттирилишини таъминлайди.

Оператор Интерфейси. Оператор интерфейси фойдаланувчига объектни ишлатиш билан боғлиқ вазифаларни ҳал этишни ўрганиш ва бошқариш қурилмаларини реал жараёндаги каби қўллаш имконини беради.

Инструктор станцияси. Инструктор тренажерда машқни бажариш ва имитация қилинадиган жараён сценарийсини танлашни бошқаради.

Қўшимча жиҳозлар. Принтерлар, огоҳлантириш сигналени берадиган ускуналар ва моделлаштириладиган жараённи реал ҳолатга яқинлаштирувчи бошқа жиҳозлар тренажернинг қўшимча ускуналарини ташкил қилади.

Замонавий тренажер тизимларига бўлган талабларни фақатгина компьютер графикаси воситалари билангина қониқтириш мумкин эмас. Бундан ташқари, қатор тренажер тизимларини уларда мавжуд «кўриш симуляциялари» билан бир қаторда «сезиш симуляциялари» билан жиҳозлаш талаб этилади. Мутахассисларни тайёрлашда фақат компьютер тренажерлари билан чекланиб қолиш реал талабларга етарлича жавоб бера олмайдиган, «виртуал мутахассислар» тайёрланишига олиб келиш эҳтимоли вужудга келади. Компьютер тренажерларини ривожлантириш замонавий тараққиёт босқичи кўп жиҳатдан виртуал борлиқ воситалари, 3-ўлчамли тасвирлар ва имитаторлардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлмоқда.

1.3. Masalaning qo`yilishi va uning amaliy ahamiyati

Ma`lumki, bugungi kunda MS Office 2010 dasturlarining takomillashib borishi juda ham tez sodir bo`lmoqda.. Ayniqsa, MS Office 2010 versiyasidan boshlab dasturning shaklida ham ancha qulayliklar yaratilishi boshlangan. SHundan kelib chiqib, dastur bilan ishlashda akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida, dastur imkoniyatlarini o`rganishni xoxlovchi o`quvchi uchun maxsus MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida ham dastur imkoniyatlarini ochib berish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab qilinadi:

- MS Office 2010 dasturi va trenajyorlar yaratuvchi tizimlar bo`yicha mavjud manbalarni tahlil qilish;
- Trenajer dasturiy mahsulotlar va ulardan foydalanish bo`yicha mavjud manbalar tahlilini amalga oshirish;
- MS Office 2010 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va trenajyor mahsulotlar yaratish vositalarini tahlil qilish va ulardan mavzuga moslarini ajratib olish;
- MS Office 2010 dasturi va uni o`rnatish bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlarni shakllantirish va aniq strukturaga solish;
- Trenajyor dasturiy mahsulotlarni yaratish vositalari va imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Dasturiy mahsulotlarni yaratishda dasturlar va kompyuterning texnik ta`minotiga talablarni ishlab chiqish;
- MS Office 2010 dasturini o`rnatish va dastur imkoniyatlari bo`yicha multimediali dasturiy mahsulot ishlab chiqish;
- MS Office 2010 dasturini o`rnatish ketma-ketligi va o`rnatiluvchi dasturlarning turlari bo`yicha muammoli ma`lumotlarni shakllantirish;
- Trenajyor dasturiy mahsulotni yaratish texnologiyasini ishlab chiqish;
- Yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish bo`yicha yo`riqnoma ishlab chiqish;
- O`quv mashg`ulotlarini tashkil etishda trenajyor mahsulotlar va ularni samaradorligini tahlil qilish va baholash;
- Hayot faoliyati xavfsizligi bo`limida trenajer mahsulotlarni ishlab chiqishda kompyuter bilan ishlashda qo`yiladigan asosiy tartib qoidalarini aniqlash va me`yoriy xujjatlarini tahlil qilish hamda bajarilgan ish bo`yicha asosiy xulosa va takliflarni keltirib o`tish talab qilinadi.

YUqoridagi fikrlardan ko`rinadiki, noinformatik ta`lim yo`nalishlari uchun “MS Office 2010 dasturini o`rnatish bo`yicha trenajer dasturiy mahsulot yaratish talabalarga katta imkoniyatlarni ochib berishi mumkin. Bunda talaba dars mashg`uloti davomida yaratilgan elektron trenajer dasturiy mahsulotdan foydalanib mavzu bo`yicha bilimlarni o`zlashtirib, olgan nazariy bilimlari asosida trenajer mahsulot orqali tajriba o`tkaza olsin.


2-bob. MS Office 2010 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va trenajyor mahsulotlar yaratish vositalari

2.1. MS Office 2010 dasturi va uni o`rnatish bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlarni shakllantirish


Hozirgi kunda axborot bilan ishlash, uni qabul qilish, yaratish, qayta ishlash ko`p vaqt talab qilmoqda. Shuning uchun 1995-yilda Microsoft kompaniyasi tomonidan axborotlarni kirituvchi, uni taxrir qiluvchi, ularni jadval usulida tartiblovchi, hattoki matematik amallarni bajaruvchi MICROSOFT OFFICE pakti dasturini ishlab chiqdi.

Bu dastur kundan kunga ko`pgina kerakli dasturlarni o`z ichiga olmoqda. Masalan ular ichida eng ko`p foydalanadiganimiz Microsoft Word, Microsoft Office, Microsoft Power Point va h.k.


Microsoft Office paketiga murojaat etish uchun Pusk → Programmi → Microsoft Office dasturiga sichqonchani olib kelishimiz kifoya. Shunda ekranimizda qo`shimcha muloqot oynasi paydo bo`ladi. Bu oynada:




ma`lumotlar ombori bilan ishlovchi dastur;



jadvallar yaratish, formulalar hosil qilish uchun mo`ljallangan dastur;




aketalarni joylashtirish (kadrlar bo`limi) uchun yaratilgan dastur;




internet tizimi orqali kiruvchi xatlarni o`qish imkoniyatiga va xat yuborish imkoniyatiga ega dastur;



sladlar yaratish, ularga chiqish animatsiyalarini qo`yish imkonini beruvchi dastur;



har xil turdagi taklifnoma (otkro`tkalar) yaratish imkonini beruvchi dastur;




va ma`lumotlar bilan ishlashda, ularni kiritishda, chop etganimizda eng ko`p foydalanadigan dasturimiz Microsoft Word dasturini ham o`z ichiga oladi.

Microsoft Office dasturi ilk bor Windows 95 operatsion tizimi uchun 1995-yilda Microsoft firmasi tomonidan yaratilgan. Microsoft Office 95 paketida asosan Excel, Word, Publishr dasturlari joy olgan edi. Keyinchalik 1998-yilda Microsoft yangi Office dasturini Microsoft Office 98 deb nomlanuvchi paketni ishlab chiqdi. Bu paketga qo`shimcha qilib, Outlook va Power Point dasturlari kiritildi. 2000, 2003, 2013, 2010 va 2013 yilda yaratilgan Office paketidagi dasturlar soni yil sayin ko`payib takomillashib kelmoqda. Hozirgi kunda eng ko`p foydalaniladigan turi bu Microsoft Office 2003 dasturidir. Bu dastur nafaqat mutahassislar balki yangi ishlovchilar uchun ham bir muncha qulay.

Microsoft Office versiyasi	Tarkibidagi dasturlar soni	Ishlab chiqarilgan yili
----------------------------	----------------------------	-------------------------

Microsoft Office 95	3	1995
Microsoft Office 97	4	1997
Microsoft Office 2000	5	2000
Microsoft Office XP	5	2001
Microsoft Office 2003	7	2003
Microsoft Office 2013	9	2006
Microsoft Office 2010	9	2009
Microsoft Office 2013	12	2012

Microsoft Office paketi Microsoft Office 2003 gacha imkoniyatlari ortib, tarkibiga yangi dasturlar qo'shilib borsada o'z ko'rinishini o'zgartirmagan edi. Ammo 2006-yil sotuvga chiqarilgan Microsoft Office 2013 paketi o'zidan avvalgi avlodlarning barcha buyruqlari va imkoniyatlarini saqlab qolgan bo'lsada, ko'rinishi oldingi versiyalardan tubdan farq qilardi. Bu farqni quyidagi 10– rasmdan sezish mumkin.



WORD muharriri Microsoft firmasining mahsulidir. Hozirgi kunda **WORD** muharririning versiyalari keng tarqalgan va ushbu muharrirlar faqatgina Windows dasturi muhitida ishlaydi. Bu muharrir yordamida yangi matnni kiritish, matnni tayyor shakl asosida kiritish, xatlarni qo'yilgan talablarga asosan tayyorlash, manzillarga jo'natish, rasm, grafik, jadval va diagrammalardan foydalanish: matnni chop etishdan avval ekranda ko'zdan kechirish, matnni kiritishda imlosini tekshirish va boshqa bir qator amallarni bajarish mumkin.

WORD muharririda ba'zi bir tushunchalar mavjud. Bu tushunchalarning tavsifi quyidagicha:

- *Avtomatn* – matn kiritilayotganda ayrim so'z, ibora va jummalarni bir necha bor yozishga to'g'ri keladi. Ularni qayta yozish zarur emas. Avtomatn buyrug'i ularni qayta yozadi.
- *Avtomuharrir* – matnni kiritish jarayonida ayrim xatolar tez-tez takrorlanadi. Bu xatolarni matn kiritilayotganda avtomatik ravishda to'g'irlash mumkin. Bu amal avtotahrir qilish deb ataladi va uni avtomuharrir bajaradi.
- *Asboblari paneli* - tugmalar majmuidan iborat bo'lgan panel. Bunda tugmani bosish natijasida biror buyruq bajariadi. Har bir tugma aniq vazifa va nomga ega.
- *Formatlash* – bu hujjat shaklini o'zgartirishdir. Bunda shriftlarni tanlashingiz, ta'kidlanishi zarur bo'lgan so'z va iboralarni ajratish, abzats chegaralarni tekislash, satrlar orasidagi masofalarni o'zgartirish mumkin.
- *Avtoformat* – mavjud shakllar asosida matnni formatlash.
- *Kolontitul* – har bir sahifaning yuqori yoki quyi qismida yoziladigan biror bir ma'lumot. Masalan, hujjatning nomi, hujjat avtori, mos sahifa raqami, sana va vaqt va hakozi bo'lishi mumkin.


- *Konteks menyusi* – “sichqoncha” ning o’ng tugmasi yordamida hosil qilinadigan menyu. Tanlangan ob’ektga mos ravishda menyu ham o’zgarib turadi.
- “*Sichqoncha*” – hozirgi zamon komp’yuterlarining ajralmas qismi bo’lib, odatda, 2 yoki 3 tugmali bo’ladi.

WORD muharriri quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Matnlarni kiritish va tahrir qilish;
- Matnni chop etishda avval ekranda uning shaklini ko’zdan kechirish;
- Hujjatlarning tayyor shakllari bilan ishlash ;
- Formatlash usullaridan foydalanish ;
- Xatlarni amaldagi qoidalar asosida tayyorlash;
- Blankalarni tayyorlash ;
- Jadvallar bilan ishlash;
- Zarur holda yordamchi ko’rsatma berish;
- Formulalar yozish;
- Imloni tekshirish;
- So’zlarni bo’g’inlab ko’chirish;
- WINDOWS ilovalari ma’lumotlaridan foydalanish;
- WORD Art yordamida reklamali matnlar tayyorlash;
- Diagrammalar va grafiklar, rasmlar va hokazolar chizish.

2.2. Trenajyor dasturiy mahsulotlarni yaratish vositalari va imkoniyatlari

Elektron metodik tavsiyalar ishlab chiqishda didaktik materiallar yaratish vositalari **Power Point** ishga tushirilganda ekranda ko'rsatilgan taqdimot yaratish muloqot darchasini ko'rish mumkin.



Bu muloqot darchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish mumkin bo'ladi. Quyidagi 4 ta asosiy bo'lim berilgan, ularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

- «Master avtosoderjaniya» (Avtomundarija ustasi) — ma'ruzachi ismi, familiyasi, mavzu nomi, taqdimot turi, uslubi, rangli chizmasini kiritib, bir necha slayddan iborat bo'lgan tayyor taqdimotki chiqaradi.
- «**Shablon prezentasii**» (Taqdimot qoliplari) — taqdimotni jihozlash turini tanlash va ularda ish olib bo-rish imkonini beradi.
- «**Pustuyu prezentasiyu**» (Bo'sh taqdimotni) — mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.


• «**Otkro`t prezentasiyu**» (Taqsimotlarni ochish) — kompyuter xotirasida va diskda mavjud bo'lgan ko'rgazmali fayllarni ochadi. har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yuqoridagi bo'limlardan birini o'z maqsadiga ko'ra tanlab oladi. Dastur ishini bo'sh taqdimotdan ham boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichi «**Pustuyu prezentasiyu**» (Bo'sh taqdimotni) bo'limiga olib kelinadi va «OK» tugmasi bosiladi. Bunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo'ladi.

Bu yerda ko'rsatilgan har bir slaydni tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yo'nalish tugmalari yoki sichqonchadan foydalanish mumkin.

Muloqot darchasidan kerakli holat, masalan: «**Pustoy slayd**» (Bo'sh slayd) ko'rinishi tanlanadi va «OK» tugmachasi bosiladi. Bu amallar bajarilgandan so'ng **Power Point** dasturining asosiy oynasi hosil bo'ladi (9.4-rasm). U sarlavhalar qatori, gorizontal menyu, uskunalar paneli («standart», «bichimlash» va rasmlar bilan ishlash), rejim (holat) tugmachalari (slaydlar rejimi, strukturalar rejimi, saralash rejimi, namoyishlar rejimi) va ishchi maydonni o'z ichiga oladi.

Power Point ekranining pastki chap burchagida ish rejimi va uning turlarini boshqaruvchi tugmachalar (piktogrammalar) guruhi joylashgan.

Maxsus effektlarni o'rnatish



Maxsus effektlarni o'rnatish deganda namoyishlarni bir slayddan boshqa slaydga o'tish tezliklari ketma-ketligi tushuniladi. Bu funktsiyani bajarish uchun Power Point dasturining «**Perexod slayda**»


(Slaydning o'tishi) nomli muloqot darchasi bo'lib, u gorizontaal menyudagi quyidagi buyruqlar orqali ishga tushiriladi.

«Pokaz slaydov» (Slaydlarni ko'rsatish) — «Perexod slayda» (Slaydning o'tishi). Bu buyruqlar bajarilgandan so'ng ekranda quyidagi oyna hosil bo'ladi.

Bu oynada ish yuritish, ya'ni bir slayddan boshqa slaydga o'tish ikki xil usulda olib boriladi:

1. Sichqoncha tugmasini bosish orqali. Bunda oynaning chap pastki qismidagi «Prodvijenie» (harakatlanish) darchasidagi «po shelchku» oldiga belgi qo'yiladi.

2. Avtomatik ravishda (belgilangan vaqtdan keyin). Buning uchun 1-usuldagi ish takrorlanadi. Faqat «Prodvijenie» (harakatlanish) darchasida «Avtomaticheski posle» oldiga belgi qo'yiladi va uning tagida slaydlarning almashinish daqiqasi kiritiladi.



Shundan so'ng «Primenit ko vsem» (Barcha slaydlarga qo'llash) yoki joriy (ish yuritayotgan) faylning slaydlarini almashtirish uchun «Primenit» (qo'llash) buyruqlari tanlanadi.

Namunaviy slaydlar. Namunaviy slaydlar darchasi shrift turlari, o'lchami, slaydlarning asosiy elementini birlashtirish usullarini o'z ichiga oladi. Foydalanuvchi xohishiga qarab namunaviy slaydga taqdimotning qolgan barcha slaydlarida paydo bo'luvchi matn yoki rasm qo'shishi mumkin. Bunda sarlav?alar qo'yish, sana, vaqt hamda slayd raqami maydonlari mavjud. Namunaviy slaydlar darchasiga gorizontaal menyu orqali quyidagi buyruqlar orqali o'tiladi va kerakli namunalar tanlanib olinadi:

«Vid» (Ko'rinish) — «Obrazes» (Namuna) — «Obrazes slaydov» (Slaydlar namunasi).

Yuqoridagi buyruqlar bajarilsa slaydlar ketma-ketligi ishga tushadi.

Animasiya — bu, ob'yektlar, kameralar, yorug'lik manbalarining o'zaro joyini almashtirish yoki ularning parametrlarini vaqt bo'yicha o'zgarishiga ega bo'lgan vazifa yoki topshiriqdir. hozirgi paytda kompyuterli grafika vositalarini qo'llashning ushbu sohasi kuchli rivojlanishni boshdan kechirmokda. Animasion grafika o'zida rang tasvir va illyustrativ grafika (mashinaviy tasvirlar, illyustrativ matnlar, chizmalar, eskizlar va boshqalar) bilan ishlay olish imkoniyatiga ega.

Televizorimiz ekranida har kuni tomosha qiladigan reklama kliplari, turli multfilmlarning ko'pchiligi ana shu animasion grafika asosida yaratilgan. Misol uchun Uolt Disney studiyasi tomonidan bundan 50 yil muqaddam yaratilgan «Oqqiz va yetti gnomlar» multfil'mi birinchi animasion tasma bo'lgan. Yoki 1991 yilda ushbu kompaniya tomonidan yaratilgan «Sohibjamol va maxluq» multfilmini ko'pchiligingiz sevib tomosha qilasiz.

Animasion effektlarni qo'llash uchun bichimlash uskunalari panelidagi yul-duzcha tugmachasi bosiladi. Natijada quyidagi «Effekti` animatsii» (Anima-siya effektlari) uskunalar paneli hosil bo'ladi. Ushbu uskunalar panelidagi asosiy elementlar bilan tanishib chiqamiz.

1. Sarlavha animasiyasi. Bunda animasiya nomi yoziladi.
2. Slayd matnlarining animasiyasi. Matn yozilgan barcha slaydlarni ekranda namoyish etadi.
3. Kirish effekti. Bu piktogrammaga sichqoncha ko'rsatkichi keltirib bosilgandan so'ng, namoyish ekranida belgilarning chiqish tezliklari hosil bo'ladi. Ya'ni, belgilarning ketma-ket tartibda chiqishi ta'minlanadi.

4. Uchish effekti. Belgilarning namoyish ekranida ketma-ket uchib tushishini ta'minlaydi.

5. Kamera effekti. Namoyish slaydining tasvirini ta'minlaydi.

6. Portlash effekti. Bunda slaydga yozilgan axborotlarning ekranda bir marta hosil bo'lib, yo'qolish holati ta'minlanadi.

7. Lazerli effekt. Slayddagi yozuvlarning uchish tezligini va turli tomonlardan uchib tushish parametrlarini o'zgartirish piktogrammasidir.

8. Yozuv mashinkasi animasiyasi. Bunda kiritilgan belgi-lar endi yozilayotgan yozuv mashinkasidagi kabi hosil bo'ladi.

9. Otib tushirish effekti. Bunda yaratilgan slayddagi belgilar biror tugma bosilgungacha yashirinish turadi.

10. Animasiyalarni sozlash. Bu piktogramma animatsiyalar parametrlarini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Power Point dasturidagi qo'shimcha elementlar bilan ishlash

Rasm qo'yish. Taqdimotga rasm qo'yish yoki rasmni boshqa taqdimotdan olib qo'yish mumkin. Buning uchun quyidagi ishlar bajariladi: Rasm qo'yish uchun:

- Rasmni qo'yish kerak bo'lgan slayd ko'rinishi tanlanadi.
- «**Vstavit risunok**» tugmachasi bosiladi va Clip Art darchasidagi kerakli rasm tanlab olinadi.
- Shu darchadan «**Vstavit**» (Kiritilsin) tugmachasi bosilgandan so'ng yaratilayotgan prezentatsiyada rasm paydo bo'ladi.

Hosil bo'lgan rasmning kattaligini o'zgartirish va uni boshqa joyga ko'chirish ham mumkin. Buning uchun:


- Rasm faollashtiriladi, ya'ni rasm ustida sichqoncha ko'rsatkichi bosiladi;
- Chegaradagi ramka orqali rasm kerakligicha kattalashtiriladi yoki kichiklashtiriladi;
- Faollashgan ramkadagi rasm sichqoncha orqali kerakli joygacha sudrab o'tkaziladi.

Boshqa taqdimotdan rasm olib qo'yish uchun: «**Vstavka**» (qo'yish) — «**Risunok**» (Rasm) — «**Iz fayla**» (Fayldan) buyruqlari tanlanadi. Natijada, ekranda uskunalar paneli paydo bo'ladi. Bu panel «**Nastroyka izobrajeniya**» (Tasvirni sozlash) paneli bo'lib, u orqali rasmni ko'chirish, bo'yash, ramka o'tkazish, rasm kontrastini (tiniqligini) to'g'rilash mumkin.

Rasmni skaner orqali ham qo'yish: buning uchun «**Vstavka**» (qo'yish) menyusida «**Risunok**» (Rasm) keyin «**So skanera**» (Skanerdan) buyrug'i tanlanadi. Rasm «**MS PHOTO EDITOR**» da ochiladi va uni o'zgartirish mumkin bo'ladi. Taqdimotga rasm qo'yib, uni o'zgartirish, masalan, chegara ranglarini o'zgartirish, aloqida fragmentlar o'rnini o'zgartirish, bir necha rasmlarni birlashtirish mumkin.

Xususan, dars jarayonida mavzuga doir turli xil slaydlar yordamida o'quvchilarni fikrlarini bir joyga jamlash, ularga nafaqat tushuntirish orqali, balki ko'rgazmali tarzda o'quv mashg'ulotlarining mazmuni tushuntiriladi. Dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni birgalikdagi ishtiroklarini ta'minlash uchun taqdimot yaratish jarayonida Ispring dasturining imkoniyatlarini qo'llash yaxshi samara beradi. Ma'lumki, o'quv mashg'ulotini mavzusini ma'ruza darslarida iSpring dasturi imkoniyatlari qo'shib, taqdimotni mukammallashtirish orqali yanada boyitish imkoniyati mavjud.


Dasturiy ta'minotda 10 xil turdagi testlarni, interaktiv kitoblar, kataloglar, savol-javoblar, vaqt shkalalarini qo'llash, shuningdek dialoglar asosida suxbatlarni tashkil etish, hamda audio taqdimotli darslar yoki videodarslarni taqdimotning o'zida qo'shib ishlatish imkoniyatlari mavjud.



Bu dasturni Microsoft PowerPoint dasturi bilan birgalikda qo`llanilishi natijasida yaratilgan taqdimotni bir nechta turdagi shakllarda saqlash imkoniyatlari mavjud. Xususan, internet tarmog`ida yoki brauzer orqali namoyish qilish imkonini beruvchi html formatida, mobil telefonlarida foydalanish imkonini beruvchi html5 formatida, animasion namoyish qilishga mo`ljallangan flash formatida yoki qo`shimcha dasturiy vositalarni talab qilmay foydalanish imkonini beruvchi *.exe formatlarida saqlash va foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Ўrgatuvchi dasturiy ta`minotlarning turhlari juda kўp bўlib, ularning bir nechta imkoniyatlari bilan tanihib olamiz va ularning solishtirma ma`lumotlarini shakllantiramiz.

Snagit dasturiy ta`minoti o`rnatish uchun juda ixcham, tez o`rnatiluvchi, qo`shimcha serial raqamlarni talab qilmaydigan, tekin tarqatiladigan hamda unchalik katta bo`lmagan dasturiy ta`minotlardan biri hisoblanadi. Dastur ta`minoti alohida xususiyatga ega bo`lib, uni funksional tugmalarga birlashtirish orqali ixtiyoriy vaqtda murojaat qilinishi mumkin. Dasturni ishga tushirilganda uni ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:



Dasturni oyna ko`rinishidan ham bilish mumkinki, unda rasmga olish, mantni belgilash hamda videoga olish imkoniyatlari mavjud. Faqat bu rejimlarni tanlash orqali ularni parametrlarida o`zgarishlarni amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, kompyuter oynasining ixtiyoriy joyini belgilab olish orqali rasmga olish, vidoetasvirga olish imkoniyatlari ham mavjud.

